



**O'QITUVCHILARNING AKT KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI PEDAGOGIKA MODELLARINING
ROLI: O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA QIYOSIY TAHLIL**

Lolayeva Durdona Raxmatovna

Yangi Asr Universiteti 2-kurs magistranti

Tel: 990393348

E-mail: lolayevadurdona@959gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli pedagogika modellarining o'rni va ahamiyatini O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribaga nisbatan qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda biz xalqaro modellarning va O'zbekistonning milliy ta'lim islohotlarining solishtirilishi orqali raqamli ta'limning o'qituvchi malakasini oshirishdagi roli ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari, O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli pedagogika modellarini takomillashtirish bo'yicha bir qancha takliflar berib o'tamiz. Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish yo'llarini aniqlashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: raqamli pedagogika, AKT kompetensiyasi, o'qituvchi tayyorlovi, DigCompEdu, TPACK, O'zbekiston ta'limi, qiyosiy tahlil, raqamli texnologiyalar, ta'lim islohotlari.

Kirish. Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda, o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli pedagogika modellarining roli bu jarayonda alohida o'rin tutishi barchamizga ma'lum. Chunki ular o'qituvchilarga nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki texnologiyalarni pedagogik jarayonga moslashtirish usullarini ham o'rgatadi. Misol sifatida ko'rishimiz mumkinki, pandemiya davrida masofaviy ta'limning keng tarqalishi o'qituvchilarning raqamli savodxonligi muammosini yanada keskinlashtirdi. O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida bir qancha islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ammo xalqaro tajribaga nisbatan sezilarli farqlar mavjud. Bilamizki, xalqaro ta'lim tizimi bizga nisbatan ozroq bo'lsada yuqori pog'onada har jihatdan. Bu farqlar asosan infratuzilma, o'qituvchilar tayyorlovi va resurslar taqchilligi bilan bog'liqdir. Raqamli pedagogika tushunchasi ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash va ularni pedagogik maqsadlar uchun moslashtirishni nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda bu soha yaxshi rivojlangandir. Yevropa Ittifoqida DigCompEdu modeli o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini baholash va rivojlantirish uchun keng qo'llaniladi. Ushbu model

o'qituvchilarga professional muhitda raqamli vositalardan foydalanish, resurslar yaratish, ta'lim jarayonini tashkil etish va o'quvchilarda raqamli ko'nikmalarni shakllantirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. O'zbekistonda esa bu jarayon hali boshlang'ich bosqichda, ammo milliy ta'lim standartlarida raqamli kompetensiyalarga urg'u berilmoqda. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli pedagogika modellarini joriy etish orqali o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini oshirish mumkin. Masalan, hozirda ko'plab mamlakatlarda TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge) muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bu model texnologiya, pedagogika va mazmun bilimlarini birlashtirib, o'qituvchilarga innovatsion darslar o'tish imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida esa bunday modellar milliy ehtiyojlarga moslashtirilishi zarur. Barchamizga ma'lumki, qishloq joylarda internet ta'minoti va texnik jihozlar masalasi haligacha to'liq hal etilmagan. Ushbu tezisdan mavzuning qiyosiy tahlili xalqaro va mahalliy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot maqsadi – raqamli pedagogika modellarining o'qituvchilar AKT kompetensiyasini shakllantirishdagi rolini aniqlash va O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlarini baholash. Buning uchun xalqaro modellarni O'zbekiston tajribasi bilan solishtirish va takliflar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ta'lim tizimida raqamli islohotlarni chuqurlashtirishda ko'rinadi. Chunki o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalari o'quvchilarning ta'lim sifatini bevosita belgilaydi. Tadqiqot ishi davomida o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha xalqaro miqyosda ancha rivojlangan. Masalan, DigCompEdu modeli Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oltita asosiy yo'nalishda belgilaydi:

1. professional faoliyat,
2. raqamli resurslar,
3. ta'lim jarayoni,
4. baholash,
5. o'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish
6. raqamli savodxonlikni rivojlantirish.

Bu model o'qituvchilarning raqamli vositalardan samarali foydalanishini ta'minlaydi. Va ko'plab Yevropa mamlakatlarida o'qituvchi malakasini oshirish dasturlarida asosiy ramka sifatida ishlatiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, DigCompEdu o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarini baholashga imkon berib, ta'lim sifatini oshiradi (Redecker, 2017).

Xulosa. Shuningdek, TPACK modeli ham muhim o'rin tutadi. Bu model texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarni birlashtirib, o'qituvchilarga AKTni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish usullarini o'rgatadi. TPACK modeli o'qituvchilarning nafaqat texnik bilimini, balki pedagogik qo'llanilishini ham rivojlantiradi. Uning natijada olib borilgan darslar interaktiv va samarali bo'ladi. O'zbekiston adabiyotlarida raqamli pedagogika masalalari nisbatan yangi, ammo tez



rivojlanmoqda. Masalan, “Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” kitobida (Sayidova, 2024) raqamli kompetensiya axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim va raqamli resurslar yaratish ko'nikmalarini o'z ichiga olgani ta'kidlanadi. Xalqaro va O'zbekiston adabiyotlarini qiyosiy tahlil qilinganda sezirali darajada farqlar borligi aniqlandi. Xalqaro modellarda raqamli kompetensiya tizimli baholanadi va o'qituvchilarning professional rivojlanishiga urg'u beriladi. O'zbekistonda esa urg'u asosan resurslar yaratish va masofaviy ta'limga qaratilgandir. Ammo tanqidiy fikrlash va innovatsion usullarga kam e'tibor beriladi (Djurayeva, 2025). Masalan, bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyani rivojlantirishda loyiha asosidagi o'qitish muhim, ammo bu sohada tajriba kam.

Yana bir muhim jihat – raqamli pedagogika modellarining ta'siri. Xalqaro tadqiqotlarda (Falloon, 2020) raqamli kompetensiya o'qituvchilarning ish samaradorligini 20-30 foizga oshirishi ko'rsatilgan. O'zbekistonda esa bunday modellarni joriy etish orqali ta'lim sifatini yaxshilash mumkin, ammo yuqorida eslatib o'tilganidek internet bilan bog'liq muammolarni ham hisobga olib o'tish zarur. Va bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Publications Office of the European Union.
2. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record.
3. Sayidova, N. S. (2024). Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar. Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti.
4. Rakhimov, B. (2024). Digital technologies and modern pedagogy: Evidence from Uzbekistan. ResearchGate.
5. Djurayeva, L. R. (2025). Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyani rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari. ResearchGate.
6. Falloon, G. (2020). From digital literacy to digital competence: the teacher digital competency (TDC) framework. Springer.
7. UNESCO. (2020). Uzbekistan Education Sector Analysis. World Bank.
8. Kiryakova, G., & Kozhuharova, D. (2024). Digital Pedagogical Competency Framework for Teacher (DPCFT) for 21st Century Teachers. Preprints.org.
9. OECD. (2022). Education at a Glance: OECD Indicators. OECD Publishing.
10. Cabero-Almenara, J. (2023). Teachers' digital competences: Concepts, models and challenges for the educational integration of technologies. ResearchGate.